

varaqalariga kiritishning majburiy sharti sifatida kompaniyada ichki audit mavjudligini nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ichki audit juda ko'plab vazifalarni hal qila oladi, ammo bu kompaniyaning mavjud barcha muammolariga universal yechim bo'ladi degani emas. Masalan, 1) Ichki audit barcha inson omili ishtirokidagi xatoliklarni yoki kasbiy suiiste'mollik holatlarini har doim ham bartaraf eta olmaydi, lekin u ularning yuzaga kelishini minimallashtirishi va erta aniqlashi mumkin (albatta sifatli audit amallari orqali). 2) Ichki audit har bir hisobga oid muomalalarni doimiy bir maromda tekshira olmaydi, lekin dastlabki xavflarni to'g'ri tahlil qilish orqali riskni pasaytirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi 3946-son Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-sonli Qaroriga 2-ilova.

3. А. Сонин «Зачем компании нужен внутренний аудит?», статья эл.журн., ИВА май, 2024.

4. A.Tuychiyev, I.Qo'ziyev, O.Masharipov A.Avlokulov, M.Yakubov, I.Sherimbetov, I.Avazov; Audit. Darslik. — T. : "Iqtisod-Moliya".

5. Qudbiyev, N. T., Ulug'bekov Erkinjon (2022). Tadbirkorlik subyektlarida ichki nazoratning samarali tizimi sifatida ichki auditning o'рни va ahamiyati., Scientific progress, 3(1).

6. Мехмоналиев У., «Вопросы организации службы внутреннего аудита на предприятиях», (Цифровая экономика), (6), 415-423.

7. Жуков, Д. О., & Каткова, Е. А. (2024). «Внутренний аудит в системе обеспечения финансовой безопасности организаций АПК». Экономика и бизнес: теория и практика, (6-1 (112)).

REAL SEKTOR VA BUDJET-SOLIQ TIZIMI O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI

Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi

O'zMU "Iqtisodiyot nazariyasi"

kafedrasi tayanch doktoranti

Real sektor — iqtisodiyotning ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish jarayonini ifodalaydi, budjet-soliq tizimidagi o'zgarishlar real sektor rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Real sektor va budjet-soliq tizimi o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ularning bir-biriga ta'siri va bog'liqligini tahlil qilish, mamlakat iqtisodiyotining barqaror va samarali rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga egaligi bilan ahamiyatlidir. Real sektor va budjet-soliq tizimi tushunchalariga izoh beradigan bo'lsak, real sektor - iqtisodiyotning ishlab chiqarish faoliyatini belgilovchi bo'limi bo'lib, sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar

va boshqa sohalarni o'z ichiga oladi. Budjet-soliq tizimi esa davlatning moliyaviy resurslarini jamlash, taqsimlash va sarflash mexanizmidir. [1] Bundan tashqari davlatning moliyaviy resurslarini boshqarish mexanizmi sifatida real sektorni rivojlantirishda va davlat xizmatlari va investitsiyalarni moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tarmoq va tizim o'rtasidagi aloqalarni samarali tashkil etish iqtisodiy strategiyalar va siyosatlarni takomillashtirishda asosiy yo'nalishlarni belgilaydi va davlat, jamoatchilik va shaxsiy sektorlar o'rtasida samara va barqarorlikni oshirishga yordam beradi.

Real sektor va budjet-soliq tizimi o'rtasidagi aloqalar quyidagilarda namoyon bo'ladi:[2]

1. Soliq tushumlari. Real sektor o'z faoliyatini amalga oshirganida to'lovlar va soliqlar orqali budjetga kirimlar kiritadi. Bu davlatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish dasturlarini moliyalashtirishga yordam beradi.

2. Davlat investitsiyalari. Budjet-soliq tizimi davlatning real sektorga investitsiyalarini o'z ichiga oladi, bu esa ishlab chiqarishni rivojlantirish va ish o'rinlarini yaratishda muhimdir.

Endi 2024 yilgi statistik ma'lumotlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2024 yilda Respublikada real sektordan olinadigan soliq tushumlari 15% o'sishiga o'sdi. Bu, ayniqsa, sanoat va xizmatlar sohasidagi o'sish bilan bog'liq. Davlat tomonidan real sektorga investitsiyalar 10% ga ko'payishi rejalashtirilgan, bu esa yangi loyiha va dasturlarni moliyalashtirishga mo'ljallangan.[3]

Byudjet-soliq tizimi va real sektor o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash yo'llari quyidagilardan iboratdir:

1. Soliq siyosatini takomillashtirish borasida soliq ma'muriyatining samaradorligini oshirish: raqamli yechimlar va avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish va soliqlarni to'lash jarayonini soddalashtirish va digitalizatsiya qilish kabi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

2. Real sektorni qo'llab-quvvatlash dasturlari amalga oshirish zarur. Buning uchun:

startaplar va innovatsion loyihalarga davlat tomonidan moliyaviy yordam ko'rsatish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish (masalan, subsidiyalar va imtiyozlar) kabi usullardan foydalanish kerak.[4]

3. Boshqaruv samaradorligini oshirish uchun byudjet jarayonida oshkoralikni ta'minlash va moliyaviy hisobotlarni boshqarish, shuningdek, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, xususan, davlat-xususiy sheriklik (PPP) modelini kengaytirish zarur.

4. Byudjet-soliq tizimini yaxshilash maqsadga muvofiq bo'lib, xususan, byudjet va soliqlar to'g'risida ma'lumotlarni oshkor qilish hamda barcha qatlamlar uchun oson tushunarli byudjet rejalari uchun ta'lim va bilim berish dasturlarini amalga oshirish lozim.[5]

5. Innovatsiyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun tadqiqot va rivojlanishga davlat budjetidan mablag' ajratish hamda innovatsion ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun grantlar va subsidiyalar berishni takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.[6]

6. Boshqaruv va qo'llab-quvvatlash tizimida esa mahalliy davlat hokimiyatlarining iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishdagi rolini oshirish hamda real sektor va budget-soliq tizimi o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash uchun uch tomonlama hamkorlik – davlat, xususiy sektor va nodavlat tashkilotlarining hamkorligini yo'lga qo'yish kerak.

7. Budget-soliq siyosatini optimallashtirish maqsadida real sektor uchun mo'ljallangan soliq imtiyozlarini ko'rib chiqish va taklif qilish, bu orqali ishlab chiqarish faoliyatini rag'batlantirish va byudjet xarajatlarini taqsimlashda real sektorni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan prioritetlarni belgilash maqsadga muvofiqdir.

8. Budget jarayonida ochiqlikni ta'minlash va soliq to'lovchilarning ishtirokini kuchaytirish, shu bilan birgalikda davlat organlari va real sektor o'rtasida hisobdorlik mexanizmlarini joriy etish orqali ishonchni oshirishga erishish zarur.

9. Real sektor tarmoqlarida innovatsion dasturlarni joriy etishda:[6]

- real sektorda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun budgetdan qarz va subsidiya tizimini rivojlantirish;

- texnologik yangiliklar va tadbirkorlikni rag'batlantirish maqsadida budget mablag'laridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish lozim.

10. O'zaro hamkorlikni kuchaytirish borasida:[7]

- davlat va real sektor o'rtasida samarali hamkorlik dasturlarini yaratish;

- byudjet-soliq tizimining samaradorligini oshirish uchun jamoatchilik va tadbirkorlik sektorlari o'rtasida muloqotni yo'lga qo'yish lozim.

11. Davlat organlari va real sektor xodimlari uchun moliya va iqtisodiyot sohalarida ta'lim berish dasturlarini ishlab chiqish va byudjet-soliq tizimining muhim jihatlari bo'yicha xodimlarni muntazam ravishda malakalarini oshirish kerak.

12. Byudjet xarajatlarining samaradorligini va real sektordagi ta'sirini muntazam ravishda baholash mexanizmlarini ishlab chiqish hamda statistik va analitik ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash lozim.[7]

13. Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash uchun byudjetdan ajratiladigan resurslarni oshirish va investitsiyalarni jalb qilish maqsadida byudjet ko'magida real sektorda yangi loyihalarni moliyalashtirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, real sektor vakillari uchun soliq yukini kamaytirish, ularning investitsiya va ishlab chiqarish faoliyatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari innovatsion va yuqori texnologiyali sektorlarga yo'naltirilgan soliq imtiyozlarini joriy etish, byudjetdan moliyalashtirilgan innovatsion dasturlar va ilmiy tadqiqotlarga mablag' ajratish, real sektorning rivojlanishini rag'batlantiradi. Shuningdek, byudjetni yuqori samaradorlikka ega bo'lgan sohalarga yo'naltirish va ularni qo'llab-quvvatlash, byudjet jarayonini ochiq qilish, tadbirkorlar va investorlar ishonchini orttiradi. Byudjet mablag'lari va soliqlarni qanday ishlatilishini tizimli ravishda nazorat qilish, real sektor

ehtiyojlariga mos kadrlarni tayyorlash uchun budjetdan moliyalash va ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun malaka oshirish dasturlarini amalga oshirish, hamda real sektor va budjet-soliq tizimini birlashtiruvchi strategiyalar va dasturlarni tuzish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bilan birga, ijtimoiy va ekologik masalalarni e'tiborga olish asosiy vazifalardan bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Samuelson, P.A., & Nordhaus, W.D. (2010). "Economics"(19th ed.). McGraw-Hill Education. Iqtisodning asosiy tamoyillari va budjet-soliq tizimining iqtisodiy faoliyatga ta'siri.
2. Mankiw, N. G. (2021). "Principles of Economics" (9th ed.). Cengage Learning.
3. World Bank. (2024). Doing Business Report. World Bank Group.
4. OECD. (2022). OECD Economic Surveys: [Country]. OECD Publishing.
5. IMF. (2023). World Economic Outlook: Countering the Cost-of-Living Crisis. International Monetary Fund.
6. OECD. (2023). Tax Policy Reform: OECD Tax Policy Studies. OECD Publishing.
7. Shirley, M.M., & Xu, L.C. (2021). "The Role of the State in Industrial Development: Evidence from the East Asian Experience." Journal of Development Economics, 145, 102431.

O'ZBEKISTONDA AHOLINING MOLYAVIY SAVODXONLIK DARAJASINI OSHIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION YECHIMLAR

Ibodullayev Navro'zbek-

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari

fakulteti Statistika yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Yurtimiz O'zbekiston rivojlanayotgan davlatlar qatoridan rivojlangan davlatlar safiga qo'shilishi uchun iqtisodiyotimizga yangi g'oyalar, innovatsiyalar va islohotlar qo'llanib kelinmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini yana ham shaffof, sog'lom va barqaror iqtisodiyot tomon intilishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan masala borki, bu moliyaviy savodxonlikdir.

Moliyaviy savodxonlik - shaxsiy moliyaviy, budjetlashtirish(kirim-chiqim) va investitsiyalarni o'z ichiga olgan turli xil moliyaviy ko'nikmalarni tushunish va samarali ishlash qobiliyatidir.²³³ Moliyaviy savodxonlik zamonaviy iqtisodiyotda har bir inson bilishi zarur bo'lgan asosiy bilim va ko'nikmalaridan biri hisoblanadi. Jahondagi rivojlangan davlatlar tajribasi bizga shuni ko'rsatmoqdaki, aholining moliyaviy savodxonlik darajasi oshgan sari iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi, tadbirkorlik rivojlanadi va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy

²³³ <https://www.spot.uz/oz/2022/07/24/financial-literacy/>